

NUQSONLI RIVOJLANISHDA KORREKSION ISHLAR VA PEDAGOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

nozimaroziyeva05@gmail.com

tel: +998-88-998-90-50

Annotatsiya: Ushbu maqolada nuqsonli rivojlanishga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning mazmuni, maqsadi va ahamiyati yoritilgan. Bolalardagi rivojlanish nuqsonlarini erta aniqlash, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, korreksion ishlarning bolaning bilish faoliyati, nutqi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ochib berilgan. Maqolada maxsus pedagogik yondashuvlar, differensial va individual ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari korreksion-pedagogik faoliyatning ta'lim sifatini oshirish, bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: korreksion ish, pribor, grifel, rezus factor, dislaliya, artikulyatsiya, motorika, autism sindromi

ВАЖНОСТЬ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА ПРИ ДЕФЕКТАХ РАЗВИТИЯ

Розиева Нозимакхон Ойбек кизи

Андижанский государственный педагогический институт

nozimaroziyeva05@gmail.com тел.: +998-88-998-90-50

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, цели и значение коррекционно-педагогической работы с детьми с нарушениями развития. Анализируются вопросы ранней диагностики нарушений развития у детей, организации образовательного и воспитательного процесса с учетом их индивидуальных особенностей. Также раскрывается положительное влияние коррекционной работы на познавательную деятельность, речь, социальную адаптацию и личностное развитие ребенка. В статье обосновывается эффективность применения специальных педагогических подходов, дифференцированных и индивидуальных методов обучения. Результаты исследования подтверждают, что коррекционно-педагогическая работа является важным фактором повышения качества образования, успешной интеграции детей в общество и подготовки к самостоятельной жизни.

Ключевые слова: коррекционная работа, оборудование, карандаш, резус-фактор, дислалия, артикуляция, моторика, синдром аутизма

THE IMPORTANCE OF CORRECTIVE WORK AND PEDAGOGICAL APPROACH IN DEFECTIVE DEVELOPMENT

Roziyeva Nozimaxon Oybek qizi

Andijan State Pedagogical Institute

nozimaroziyeva05@gmail.com

tel: +998-88-998-90-50

Abstract: *This article discusses the content, purpose and significance of correctional and pedagogical work with children with developmental disabilities. The issues of early detection of developmental disabilities in children, organization of the educational and upbringing process taking into account their individual characteristics are analyzed. The positive impact of correctional work on the child's cognitive activity, speech, social adaptation and personal development is also revealed. The article substantiates the effectiveness of using special pedagogical approaches, differential and individual teaching methods. The results of the study confirm that correctional and pedagogical work is an important factor in improving the quality of education, successful integration of children into society and preparation for independent life.*

Key words: *corrective work, equipment, pencil, rhesus factor, dyslalia, articulation, motor skills, autism syndrome*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi yosh avlodni har tomonlama rivojlanshiga keng shart sharoitlarni yaratmoqda. Xususan rivojlanishida turli nuqsonlar mavjud bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ham yetarlicha muhitning yaratilganligi, ularning haq huquqlarini himoya qiluvchi bir necha qaror va farmonlarning nafaqat O'zbekiston balki butun jamiyat miqyosida amalga oshirilayotganligi quvonarli holat albatta. Har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash, uning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayot kechirish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nuqsonli rivojlanishga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Korreksion ta'lim jarayoni bolaning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, rivojlantirish

va yuzaga kelgan kamchiliklarni imkon qadar bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv, logopedik va psixologik yordam usullaridan samarali foydalanish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1945 – yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tashkil etilgan UNESCO tashkiloti tomonidan alohida yordamga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim ta'moyili ilgari surildi. Bu tamoyilga asosan barcha bolalar jismoniy, aqliy va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar umumiy ta'lim tizimida teng huquqli o'qish imkoniyatiga ega bo'lishi haqida so'z yuritilgan[1]. Bunday tizimning rivojlanishi alohida yordamga muhtoj bolalarni yanada sifatli ta'lim olish huquqlarini tobora yuksaltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[2] farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 -2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi[3].

Tadqiqot jarayonida bir qator nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va defektologik adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish metodi orqali nuqsonli rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, korreksion ishlarning mazmuni va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi yoritildi.

Tadqiqot davomida, pedagogik diagnostika metodlari asosida bolalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlari aniqlanib, ularga mos korreksion-pedagogik yondashuvlar belgilandi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirishda tahlil, sintez hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Defektologiya (Korreksion pedagogika) fanida alohida yordamga muhtoj bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi. Ular quyidagilardir:

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bolgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- 2) ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- 3) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- 4) nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- 6) ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- 7) mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
- 8) rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- 9) autizm sindromiga chalingan bolalar[4].

XIX asrda taniqli rus surdopedagog, surdopedagogika fanidan yaratilgan dastlabki asarlarning muallifi V.I.Fleri, kar bolalarni o'qitish va tarbiyalashni erta boshlash zarurligini e'tirof etgan. "Kar bolaning ilk tarbiyachisi- uning onasi , farzandiga mehr-muruvvatli, diqqat-e'tiborli va g'amxo'r bo'lib, rivojlanishini ta'minlaydi talaffuz etish va labdan o'qish malakalarini shakllantiradi-deydi olim. Kar bolalarning ta'limi qancha barvaqt boshlansa, uning rivojlanishida shuncha sezilarli yutuqlarga erishish, umumiy ta'lim olishi imkoniyat yaratish mumkin[5] Bu tur bolalarda korreksiya ishlarini amalga oshirish har jihatdan muhimdir. 1930 yillarda Moskvada birinchi yasli-bog'cha ochilib, unga 1.5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Yasli-bog'chaning ta'sischi va rag'bari N.A.Rau, tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirishda analitiksintetik metodni qo'llaydi. Bolalar bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirish, harakat qilish kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha korreksiyalovchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ham olib boriladi[5]. Zaif eshituvchi bolalarda eng asosiy e'tiborni eshitish qobilyatiga qaratish ayniqsa muhimdir. Chunki ko'p hollarda bunday bolalar artikulatsion platformadan tovushlarni ko'rib o'qishga moyil bo'lib qoladilar, bu esa o'z navbatida bolaning eshituvini yanada pasayishiga olib keladi. Bunday bolalar bilan ko'p hollarda labni berkitgan holatda ishlash maqsadga muvoffiq bo'ladi. Misol uchun zaif eshituvchi

bola bilan pedagog (logoped, surdopedagog) ishlash mobaynida artikulyatsiyasini berkitib avval unli, undosh keyin esa bo'g'inlar ustida harflarni talaffuz qildirsa, bolaning birinchi etibori gapirayotgan shaxsning lab artikulyatsiyasida emas, balki quloq orqali eshituv idrokida bo'ladi. Bu esa birinchi navbatda zaif eshituvchi bolalarning eshituvini faollashishiga sabab bo'ladi.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalar bilan ham bir necha korreksion ishlar tizimi amalga oshiriladi. Bunday bolalar bilan ishlashda birinchi navbatda o'quv jihozlariga e'tib qaratish ayniqsa muhimdir.

Tiflopedagogika vositalari bugungi kun sanoatida rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilmoqda. Bular: pribor – yozuv dastgohi, grifel – ignali qalam (ruchka), rasm pribori, sirkul va har xil chizg'ichlardir. Bularning barchasi ko'zi ojizlarning o'qishi va yozishi uchun ancha qulay bo'lib, ular ish samaradorligini oshiradi, kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni birmuncha osonlashtirad[6]. Bularda foydalanish ko'zi ojiz bolalar uchun ham qulay va ma'lumotlarni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi. O'quv qurollarining har birini o'ziga xos vazifalari mavjud. Xususan pribor bu - ikkita A4 formatdagi temir list bir-biriga oshiq-moshiq bilan qotirilgan moslama. Uning tagi nuqtali chuqurchalardan iborat list, usti esa maxsus to'rsimon qilib teshilgan listdan iborat bo'lgan moslamadir. Grifel esa yozuv qalami (ruchka) bo'lib, u uchiga qog'ozni teshish uchun mo'ljallangan sim o'rnatilgan bigizsimon quroldir. Grifel ham har xil hajmda bo'lib, u foydalanuvchi shaxsning qo'lga moslashtirilgan bo'ladi, ya'ni kattalar uchun kattaroq, kichiklar uchun kichikroq. Ularning dastasi yog'och yoki boshqa materialdan tayyorlanishi mumkin. Priborning tag qismi va to'r qismi oralig'iga yozuv qog'ozi qo'yilib, mustahkamlangandan so'ng, suratda ifodalangan tarzda o'ng qo'l bilan grifelni ushlab, o'ngdan chapga tomon yoziladi[6]. Aynan mana shu yerda nega aynan o'ngdan chapga tomon yoziladi degan savol barchada tug'ilishi tabiiy alabatta. Buning asosiy sababi grifel bilan yozishda qog'oz orqa tomonda teshiladi, ya'ni yozilayotgan bo'rtma nuqtalar qog'ozning teskari tomonida hosil bo'ladi, bu esa o'z o'zidan yozuvni tog'ri o'qishga imkon yaratadi. Aynan mana shu jarayon Brayl alifbosi ya'ni bo'rtma nuqtali yozuv tizimi deb ataladi.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalarga nafaqat qulay sharoit, balki professional pedagogik jarayonni ham jonlantirish ayniqsa muhim. Ayniqsa umuman ko'rish

holatini yo'qotgan total ko'r bolalarga pedagogic metod va vositalar orqali darsni tashkillashtirish juda muhim. Bunday bolalarga birinchi navbatda tasavvur jarayonini rivojlanishiga turtki bo'luvchi metodlarni qo'llash, turli narsalarni eshituv, hid sezuv, teri taktil a'zolari orqali sezdirib o'rgatish ularning tasavvur darajasini yanada oshiradi va ijtimoiy muhit omillariga yanada yaqinlashtiradi.

Bosh miya organik buzilishlari natijasida kelib chiquvchi aqliy nuqson bilan birga ma'lum analizatorlarning jarohatlanishi ham yuz berishi mumkin. Aqliy nuqson ko'rish, eshitish, nutq va harakat tizimidagi nuqsonlar bilan birga keladi. Ba'zi hollarda aqliy nuqson markaziy falajlar bilan qo'shilib ham kelishi mumkin. Buning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin. Organizmda modda almashinuvining buzilishi, rezus faktor, genetik nuqsonlar ham bunday turdagi oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin[7]. Aqli zaif bolalarda asosan nuqsonlarning birga kelishini ko'p hollarda kuzatishimiz mumkin. Bunday holatda bolaga nafaqat bilish jarayonlari, balki ular bilan birgalikda ko'rish, eshitish va nutq komponentlarini birgalikda o'rgatib borish talab etiladi. Asosan aqli zaif bolalarning darajalariga qarab inklyuziv va maxsus ta'limda o'qitish belgilanadi. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya uch darajaga ajratiladi: debillik, imbetsillik va idiotlik[7]. Bu darajalarning eng yengili bu debillik darajasidir, bunda bola o'zining oddiy ehtiyojlarini, kunlik yumushlarini bema'lol bajara oladi. Keyingi daraja esa imbetsillik darajasidir, bu darajada esa bolaning turli jarayonlarga munosabati yetarli bo'lmay oddiy yumushlarni bajarishda ham turli qiyinchiliklarga dush kelishi mumkin. Eng oxirgi daraja eng og'ir idiotlik darajasidir, bu holatda bola o'z yumushlarini umuman bajara olmaydi, hattoki hojatini ham boshqarish faoliyati umuman shakllanmagan bo'ladi. Huddi shu xususda aqli zaiflikning eng yengil darajalari inklyuziv ta'limga qabul qilinadi va sifatli ta'lim oladi, o'rta darajalari esa maxsus maktablarda tehsil oladi va nuqsonning eng og'ir darajalari esa alohida reabilitatsiya va g'amho'rlik markazlarida tarbiyalanadi.

Hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan nuqsonlardan biri bu nutq nuqsonlaridir. Buning sababi esa o'z o'zidan turli gajet, telefon vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi, pedagogik qarovsizlik va shunga o'xshash bir necha sabablardir. Bu tur nutq nuqsonlarini korreksiya qilish jarayoni esa ayniqsa muhimdir. Hozirda eng ko'p

tarqalgan nutq nuqsonlaridan biri bu – dislaliya nutq nuqsonidir. Bu nutq nuqsoni eng yengil nuqson turli bo'lib, bunda asosan talaffuzning fonetik – fonematik qismlarida buzilish kuzatiladi. Umuman olganda nutq nuqsonida korreksiya ishlari qanday olib boriladi, birinchi navbatda korreksiya ishlarini boshlashdan oldin nimaga ko'proq ahamiyat berish kerak?

Demak nutqni korreksiya qilishda ishlarni tizimli ravishda M.Ayupovanning logopediya darligi bo'yicha ketma ketlikda ko'rib chiqadigon bo'lsak quyidagi natijaga yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin:

Logopedik yondashuv asosida nutqni korreksiya qilish:

1. Tayyorlov bosqichi
2. Asosiy bosqich

Tayyorlov bosqishi :

- a) Nafas mashqi
- b) Artikulatsion gimnastika
- c) Massaj

Asosiy bosqich:

- a) Tovush qo'yish
- b) Mustahkamlash
- c) Avtomatizatsiya
- d) Differensiatsiya

Dastlab korreksiya ishlari tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. Bunda birinchi bo'lib bolaga tog'ri nafas olish poitsiyasi o'rgatiladi. Nafas olish, burundan olib og'izdan, og'izdan olib burundan chiqarish holatida ketma ketlikda kechadi. Ko'p adabiyotlarda nafas olish asosan 4 ta qismda amalga oshadi teb takidlanadi, ya'ni

- a) Burundan olib og'izdan
- b) Og'izdan olib burundan
- c) Burundan olib burundan
- d) Og'izdan olib og'izdan

ammo bu faqat Rinolaliya nutq nuqsonini korreksiyalash tizimiga taaluqlidir. Umumiy holatda nafas korreksiyasi esa

- a) Burundan olib og'izdan

b) Og'izdan olib burundan holatida kechadi.

Keying bosqich bu artikulatsion gimnastika bosqichidir. M.Ayupovaning logopediya darsligiga binoan, artikulatsion gimnastika ikki turga ya'ni dinamik va static artikulatsiya mashqlariga bo'linadi. Bu albatta harakatli va harakatsiz artikulatsiya mashqlaridir, bularning har ikklasi ham artikulatsiya a'zosi uchun juda foydalidir.

Tayyorgarlik bosqichining eng ohirgi davri bu massaj davridir. Logopedik massaj – bu mushaklar tonusi buzilganda qo'llaniladigan faol mexanik usul hisoblanadi. Bunday massaj ayniqsa dizartriya, rinolaliya va duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladi. (Kasallik xuruj qilmagan - dinamikasiz paytda.)

Logopedik massajni quyidagi 3 guruhda qo'llash mumkin emas:

- teri kasalliklari - zamburug'li, yiringli uchuvlarda;
- shuningdek gematoma, onkologik kasalliklarda;
- yuqumli kasalliklar, ya'ni angina, epidemik tutqanoq kasalliklari, bolalar yuqumli kasalliklarida;
- stomatologik kasalliklar - stomatit. Har qanday operatsiyalar, tishlar tushishi yoki oldirib tashlashda.

Logopediyada quyidagi massajlar qo'llaniladi: an'anaviy; nuqtali (ko'proq Xitoy xalq tabobatida foydalaniladi); zondli; apparatli; o'z-o'zini massaj qilish.

An'anaviy klassik massaj bir necha turlarga bo'linadi: silash, uqalash, ezib uqalash, tebratish usullariga bo'linadi[8]. Bu massaj turlari mushaklarning funksional holatini yaxshilash, qon aylanishini faollashtirish hamda nutq apparati a'zolarining harakatchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, logopedik amaliyotda ular artikulyatsion mushaklarning tonusini me'yorlashtirish, spazmlarni kamaytirish va nutq buzilishlarini korreksiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Harakat-tayanch apparati funksiyasida kamchiliklar” tushunchasi harakatdagi buzilishlami o'z ichiga olib, kelib chiqishiga ko'ra markaziy organik yoki periferik Karakterga ega. Ushbu buzilishlar genetik nuqsonlar, shuningdek. bosh miyaning organik jarohatlari va harakat-tayanch apparatdagi jarohatlar sabab bo'lishi mumkin[9]. Mazkur kamchiliklar bolaning umumiy psixomotor

rivojlanishiga, muvozanatni saqlashiga hamda nozik va yirik motorika harakatlarini bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bunday buzilishlarni erta aniqlash va kompleks korreksion ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Korreksion-pedagogik ishlar maxsus mashqlar, davolovchi jismoniy tarbiya, logopedik ta'sir, massaj hamda fizioterapevtik usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar orqali harakat funksiyalarini qisman yoki to'liq tiklash, mushaklar tonusini me'yorlashtirish va bolaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga erishiladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning so'z-mantiq tafakkuri sog'lom tengdoshlarichalik yetarli rivojlanmagan bo'ladi, ammo, ularning ko'rgazma-harakat va ko'rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga sabr bilan yillar davomida mashg'ulotlarda shug'ullanish natijasida sog'lom tengdoshlariga tafakkur ko'rsatkichlari yaqinlashadi. Ular bilan diagnostik metodikalar o'tkazilganda hamda unda ma'lum obyektlarni tahlil qilganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar normal tenqurlariga nisbatan kamroq, lekin aqli zaif bolalarga nisbatan ko'proq belgilarni aniqlaydilar ko'rsatadi[10]. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar kompleks, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, uning asosiy vazifasi bolaning psixik rivojlanishidagi ortda qolishlarni bartaraf etish hamda uning umumiy rivojlanishini me'yorlashtirishdan iborat. Bunday bolalarda ko'pincha diqqatning beqarorligi, xotiraning sustligi, tafakkurning yetarlicha rivojlanmaganligi va nutq kamchiliklari kuzatiladi, shu sababli korreksion ishlar avvalo bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratiladi. Maxsus mashqlar orqali diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, predmetlarni taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, logopedik ishlar muhim o'rin tutib, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, lug'at boyligini kengaytirish, gap tuzish va bog'langan nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir alohida yordamga muhtoj bolalarning bir turi bu – autizm sindromli bolalardir. Autizm sindromli bolalarning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy muloqotda qiyinchilik (ko'z bilan aloqa qilmaslik, qisqa muddatli aloqa), nutqning kech rivojlanishi yoki butunlay yo'qligi, bir xil harakatlarni

takrorlash, baland ovoz va yorqin nurga yuqori sezuvchanlik[11]. Bunday bolalar bilan asosan ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ko'z kontaktini yo'lga qo'yish va bir necha bilish jarayonlarini shakllanishini normallashtirish chora tadbirlari ko'riladi. Autizm spektr buzilishiga ega bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuv, maxsus pedagogik metodlar va oila hamda pedagog o'rtasidagi muntazam hamkorlik o'zaro uyg'unlashganda, ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Har bir bolaning sensor va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish, ijtimoiy ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va o'rgangan malakalarni turli hayotiy vaziyatlarda mustahkamlash - ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishida asosiy omillardir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, rivojlanishida turli nuqsonlari mavjud bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash hamda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko'maklashish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Eshitish, ko'rish, nutq, tayanch-harakat apparati, intellektual rivojlanish, ruhiy rivojlanish, autistik spektr va murakkab nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar ularning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korreksion ishlarning samaradorligi, avvalo, bolaning ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash, unga individual yondashish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanishga bog'liqdir. Har bir nuqson turiga mos ravishda tashkil etilgan pedagogik, psixologik va logopedik yordam bolalarning bilish faoliyati, nutqi, muloqot ko'nikmalari hamda ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli ravishda yaxshilaydi. Shuningdek, korreksion-ta'lim jarayonida pedagog, logoped, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkorlik bolalarning mavjud imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ularda mustaqillik, o'ziga ishonch va ijtimoiy faollikni shakllantirishga yordam beradi.

Demak, nuqsonli rivojlanishda korreksion ishlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'limiy, tarbiyaviy hamda

ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: (1994).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
4. V. S. Raxmanova Defektologiya Asoslari (korreksion pedagogika), Toshkent – 2017..
5. . X.J.Kalbaeva. Maktabgacha Surdopedagogika (o'quv qo'llanma) Toshkent – 2007.
6. Суннатилла Дангалов “Тифлопедагогика Тарихи Ва Унинг Аҳамияти”, Тавсиянома. Тошкент – 2010. 66-69-70.
7. P.M. Po'latova “Maxsus pedagogika oligofrenopedagogika”, Toshkent – 2005. 21-22
8. P. Шомахмудова, Л. Ш. Нурмухамедова, Д. Р.Тулаганова “Логопедия комплекс машқлар методикаси” Тошкент “LESSON PRESS” 2015. 31-32.
9. D.A.NurkeIdiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishida Nuqsoni Bo'lgan Bolalar Diagnostikasi” Toshkent – 2016. 171.
10. M.Kasimova, K.Jo'raboyev “Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim–tarbiya mazmuni va jarayoni”, O'quvchilarni Kasb-Hunarga Yo'naltirish va Psixologik-Pedagogik Respublika Tashxis Markazi, Toshkent – 2022.
11. Kagan V.E. Psixologiya anomaliy rivojlanish. – Moskva, 2014. – B. 78–82.